

O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARINING ZAMONAVIY TIZIMI

Ergasheva Barno

Oriental universiteti magistri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7793394>

Annotatsiya: Maktabgacha ta'lim pedagogikasi fani eng muhim asosiy pedagogik munosabatlarni sabablarini aniqlaydi, uni pedagogik jarayonda o'rganadi. Ushbu soha bo'lajak tarbiyachilarni maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyachilik faoliyatiga tayyorlaydi. Shu sababdan o'quv maqolada maktabgacha pedagogika fanining nazariy va amaliy masalalarini yoritib berishga alohida e'tibor qaratildi.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, ta'lim –tarbiya jarayoni, uzluksiz ta'lim tizimi, axborot texnologiyalari, tarbiyachilar,

MODERN SYSTEM OF PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS IN UZBEKISTAN

Abstract: The science of preschool education pedagogy identifies the most important main pedagogical relationship causes, studies it in the pedagogical process. This field prepares future educators for educational activities in preschool educational institutions. For this reason, special attention was paid to explaining the theoretical and practical issues of preschool pedagogy in the educational article.

Key words: Pre-school education, educational process, continuous education system, information technologies, teachers,

СОВРЕМЕННАЯ СИСТЕМА ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация: Наука педагогика дошкольного образования выявляет важнейшие основные причины педагогического отношения, изучает его в педагогическом процессе. Данное направление готовит будущих воспитателей к образовательной деятельности в дошкольных образовательных учреждениях. По этой причине в учебной статье особое внимание уделено разъяснению теоретических и практических вопросов дошкольной педагогики.

Ключевые слова: дошкольное образование, образовательный процесс, система непрерывного образования, информационные технологии, педагоги,

KIRISH

Maktabgacha ta'lim pedagogikasi fani inson kamolotiga qaratilgan, xalq yaratgan boy tajriba, ilmiy tadqiqotga doir nazariy va metodik manbalarga, jahon mutafakkir, ma'rifatparvar pedagog olimlarining asarlariga suyangan holda komil insonni tarbiyalashning qonun, qoida va tamoyillariga asoslanadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi ta'lim –tarbiya jarayonida ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish, muassasalarni zamonaviy bilimlar bilan qurollangan tarbiyachilar bilan to'ldirish hamda ularda kasbiy malaka, faoliyatga nisbatan ijodiy yondashuv hissini qaror toptirish, uzluksiz ta'lim tizimida olib borilayotgan islohatlarning muhim yo'nalishlaridan biridir[1].

Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlariga, jumladan uning maktabgacha ta'lim bosqichiga e'tibor ortib borishi bilan bir qatorda maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha yoshdagi ta'lim muassasalariga jalb etish ulushi kamayib borishi bu borada maqsadli tadqiqotlar olib borish mamalakatimiz ilmiy texnikaviy dasturi, ustuvor tadqiqotlar

yoʻnalishlarining bir qismi sifatida qaralishi mumkin. Zero, taʼkidlab oʻtganimizdek, uzluksiz taʼlim bosqichlarining samarali ishlashi maʼlum darajasida maktabgacha taʼlim sifatiga bogʻliq bu davrda bolaning dunyoqarashi, tasavvurlari shakllanib boʻladi. uncha toʻgʻri mazmun va yoʻnalish berish pedagogika fani, taʼlim amaliyotining dolzarb muammosidir.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Oʻzbekiston Respublikasida maktabgacha taʼlim toʻgʻrisidagi Nizomga muvofiq bola maktabgacha taʼlimni uyda, ota –onalarning mustaqil taʼlim berishi orqali, shuningdek maktabgacha taʼlim muassasalariga jalb qilinmagan bolalar uchun maktabgacha taʼlim muassasalarida, maktablarda yoki markazlarda oladi. Bu yerda ular haftda 2-3 marta shugʻullanishadi. Ota –onalarga maktabgacha taʼlim shaklini tanlash huquqi beriladi[2].

6-7 yoshli bolaning maktab taʼlimiga tayyorligini aniqlashda maktabgacha yoshdagi bolalar taʼlim –tarbiyasi bilan shugʻullanuvchilar asosiy shart hisoblanish – bolaning maktabga tayyorligi maktabgacha va maktab davridagi hayot tarzi hamda faoliyati uchun koʻrik vazifasini oʻtashini, oila yoki maktabgacha taʼlim muassasadagi taʼlim –tarbiya sharoitlarida maktab taʼlimiga ozorsiz oʻtkazishni taʼminlash zarurligini hisobga olishlari lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolaning maktab taʼlimiga oʻtishi hamisha uning hayoti, axloqi, qiziqishi va munsoabatlarida anchayin jiddiy oʻzgarishlarni yuzaga chiqardi. Shuning uchun bolani yoki uydayoq maktab taʼlimiga tayyorlash, uni uncha qiyin boʻlmagan bilim, tushuncha, koʻnikma va malakalar bilan tanishtirish kerak boʻladi.

Maktabgacha taʼlim muassasalari – Oʻzbekiston Respublikasidagi taʼlim muassalarining turi boʻlib, turli yoʻnalishdagi maktabgacha boʻlgan davrdagi umumtaʼlim dasturlarini amalga oshiradi. Maktabgacha taʼlim muassasalari 2 yoshdan 7 yoshgacha boʻlgan bolalarni tarbiyalashni, oʻqitishni, nazorat qilishni, parvarishlashni va sogʻlomlashtirishni taʼminlaydi.

TADQIQOT NATIJALARI

Maktabgacha taʼlim muassasasini tashkil etish tartibi, faoliyatini tashkil etish va butlash, hamda maktabgacha taʼlim muassasasining mol-mulki va pul mablagʻlari, javobgarligi, boshqaruvi va taʼlim jarayoni qatnashchilari toʻgʻrisidagi kerakli maʼlumotlarni “Oʻzbekiston Respublikasida davlat maktabgacha taʼlim muassasasi toʻgʻrisida Nizom” dan olishinigiz mumkin[3].

Maktabgacha taʼlim muassasalari, faoliyat yoʻnalishiga koʻra, quyidagi turlarga boʻlinadi:

- Bolalar yaslisi, bolalar yasli bogʻchasi, bolalar bogʻchasi, uydagi bolalar bogʻchasi (mustaqil muassasa yoki filial sifatida).
- Maktabgacha tarbiya va boshlangʻich taʼlim muassasasi (bolalar bogʻchasi-maktab).
- Tarbiyalanuvchilarni bir yoki bir nechta yoʻnalishda (til, badiiy estetik, sport va boshqalar) tarbiyalovchi maktabgacha taʼlim muassasalari.
- Tarbiya jismoniy va ruhiy rivojlanishdagi ogʻishlarni kvalifikatsion yaxshilovchi tiklovchi turdagi bolalar bogʻchasi.
- Tibbiyot gigiena, profilaktika va sogʻlomlashtirish, tadbir va proseduralarini amalga oshiruvchi zaiflashgan bolalarni nazorat qilish va sogʻlomlashtirish bogʻchasi.
- Birlashtirilgan turdagi bolalar bogʻchasi (birlashtirilgan turdagi bolalar bogʻchasiga rivojlantiruvchi, tiklovchi va sogʻlomlashtiruvchi guruhlar umumlashtirilgan koʻrinishda kiradi)[4].

Maktabgacha taʼlim muassasasining ish tartibi va u yerda bolalarning boʻlish davomiyligi davlatning maktabgacha taʼlim sifat va darajasiga boʻlgan talablari, nizom, maktabgacha taʼlim muassasasi va ota-onalar orasida tuzilgan shartnoma, hamda taʼsischilar tomonidan belgilanadi.

Imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun maxsus maktabgacha ta'lim muassasalari tashkil qilingan bo'lib, u yerga bolalar davlatning joylardagi vakolatli ta'limni boshqarish va sog'liqni saqlash organlari tarafidan tashkil qilingan ruhiy-tibbiy pedagogik komissiyaning xulosasiga binoan qabul qilinadi.

MUHOKAMA

Maxsus maktabgacha ta'lim muassasasini tashkil etish tartibi, mol-mulki va pul mablag'lari, maxsus maktabgacha ta'lim muassasasida o'quv-ta'lim va sog'lomlashtirish jarayonini tashkil qilish, ta'lim jarayoni ishtirokchilari va maxsus maktabgacha ta'lim muassasasining boshqaruvi haqidagi to'liq ma'lumotlar "Maxsus davlat maktabgacha ta'lim muassasasi to'g'risidagi Nizom" da ko'rsatilgan.

Maktabgacha ta'lim, olinish shakli va usullaridan qat'iy nazar, quyidagi maqsadlarni o'z oldiga qo'yadi:

Maktabgacha ta'lim maqsad va vazifalarni amalga oshirishda ijtimoiy va xayri tashkilotlari, mahalla, xalqaro fondlar faol ishtirok etadilar.

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim davlat tilida hamda qoraqalpoq, rus, tojik, qirg'iz, qozoq va turkman tillarida olib boriladi[5].

- ✓ Maktabgacha tarbiya va boshlang'ich ta'lim muassasasi (bolalar bog'chasi-maktab).
- ✓ Tarbiyalanuvchilarni bir yoki bir nechta yo'nalishda (til, badiiy estetik, sport va boshqalar) tarbiyalovchi maktabgacha ta'lim muassasalari.
- ✓ Tarbiya jismoniy va ruhiy rivojlanishdagi og'ishlarni kvalifikatsion yaxshilovchi tiklovchi turdagi bolalar bog'chasi.
- ✓ Tibbiyot gigiena, profilaktika va sog'lomlashtirish, tadbir va proseduralarini amalga oshiruvchi zaiflashgan bolalarni nazorat qilish va sog'lomlashtirish bog'chasi.
- ✓ Birlashtirilgan turdagi bolalar bog'chasi (birlashtirilgan turdagi bolalar bog'chasiga rivojlantiruvchi, tiklovchi va sog'lomlashtiruvchi guruhlar umumlashtirilgan ko'rinishda kiradi).
- ✓ Bolalarni maktabda o'qishga maqsadli va tizimli tayyorlash;
- ✓ Bolalarning shaxsiy qobiliyatlari va iste'dodlarini rivojlantirish;
- ✓ Bolalarni milliy, umuminsoniy va madaniy qadriyatlar bilan tanishtirish, bolani intellektual rivojlantirish;
- ✓ Bolalarda yuqori ma'naviy va odob axloq asoslarini shakllantirish;
- ✓ Bolalarning jismoniy va ruhiy sog'ligini mustahkamlash.

XULOSA

Maktabgacha ta'lim maqsad va vazifalarni amalga oshirishda ijtimoiy va xayriya tashkilotlari, mahalla, xalqaro fondlar faol ishtirok etadilar.

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim davlat tilida hamda qoraqalpoq, rus, tojik, qirg'iz, qozoq va turkman tillarida olib boriladi.

Adabiyotlar

1. Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim –tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari. T., O'z.PFITI, 2000y. Tuzuvchilar M.Rasulova, X.Abduraxmonova va boshqalar.
2. Bolalarni maktabga o'qishga tayyorlash. T.: O'z.PFITI. 1997y
3. Maktabgacha ta'lim davlat standarti O'z.PFITI., T.: 1995y
4. "Bolajon" tayanch dasturi. T.: 2010 y
5. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'limga qo'yilgan Davlat talblari. T.: 2000y